By RNdesign
PDF
KITOBLAR
Siz izlagan kitoblar kanali...
Telegram kanalimiz | @pdf_book_uz

Nomahram erkak ayol bilan do’st sifatida gaplashsa bo’ladimi?

Nomahram deganda o’zi nima tushuniladi:

Nomahram- Nasab, Emizish,Nikoh jihatlaridan boshqa insonga hech qanday yaqinligi bo’lmagan odam.

Biron bir erkakka yoki ayolga nomahram bo’lgan odam bilan do’st bo’lish,birga yurish, umuman mumkin emas. Bu HAROM.

Shariatda Nomahram erkak va

Nomahram ayol do’st bo’lishi degan narsa yo’q.

Alloh taolo aytadi:

“Va zinoga yaqinlashmangiz! Albatta, u foxisha ish va yomon yo’ldir.”
(Isro:32)

Buni nimasi Zino degan savol tug’ilishi mumkin. Hozirgi bunaqa bir-biriga Nomahram “do’stlar” bir-biri bilan quchoqlashib, qo’l tashlashib, hatto ko’chada qo’l ushlashib, bir-birini yelkasiga qo’lini qo’yishib va yana biz bilgan-bilmagan ishlarni qilib yuradi. Bu

ishni qilayotgan paytda Albatta Insonda hirs uyg’onadi va Harom bo’lgan hayollar keladi va bu ochiqchasiga Zinoga olib boradi.

Bunday ishlarni “Halol”lab olganlar ehtiyot bo’lsin. Haromni “Halol” deganlar iymonsiz yoki “Kofir” bo’lib qolishi mumkin.

“... Biz yana yurdik va og’zi tor, tubi keng bo’lgan tandirga o’xshash narsaning oldiga keldik, uning ichidan ovozlar, baqir-chaqir eshitilar edi. Biz unga qaradik. Uning ichida yalang’och erkak va ayollar bo’lib,ularning tagidan alanga kelib ularni yuqoriga otardi. Men:”Ey

Jabroil, bular kimlar?”deb so’radim. U :”Bular zinokor erkak va ayollar”,dedi”(Buxoriy)

Albatta, faqat harom narsalarning uqubati shu ko’rinishda bo’ladi. Zino esa, eng katta harom amallardandir.

Nomahram bilan holi qolish shubhasiz HAROM hisoblanadi.

Abu Umoma roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:”Nomahramlar bilan holi qolishdan ehtiyot bo’lgin. Jonim qo’lida bo’lgan Zotga qasamki,biror

erkak nomahram ayol bilan holi qolsa, ular orasiga shayton kiradi. Bir erkak o’z yelkasini Nomahram ayolning yelkasiga tekkizganidan ko’ra Loy yoki balchiqqa qorilib yotgan cho’chqani quchoqlagani yaxshiroq”,dedilar.(Tabaroniy rivoyati)

Ma’qil ibn Yasar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:”Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:”Birortangiz o’ziga nomahram bo’lgan ayolni ushlagandan ko’ra boshiga temirdan bo’lgan katta igna suqilgani(qoqilgani) yaxshiroqdir”, dedilar”(Tabaroniy rivoyati)

Hadislardan ko’rinib turibdiki 2 Nomahram holi qolsa 3-si shayton bo’ladi va shayton hech qachon Halol ishga chorlamaydi, Jannatga yaqin qilmaydi. U faqat Harom yo’llarga chorlaydi.

Kech bo’lmasdan sizga Harom bo’lgan do’stingizdan keching. Shuni yodda tutingki iymonsiz va kofirlarga Jahannam abadiy. Jahannamning 1 kuni sizning 1000 kuningizga teng ❗

Bu postni o’qib amal qilmasligingiz mumkin. Endi tasavvur qiling umri

davomida qilgan Harom ishlaringiz yig’ilib-yig’ilib Savob amallaringizda og’ir kelib Jahannamda abadiy qo’lib ketsangiz NIMA qilasiz? Ayting nima qilasiz???

Tavba qiling! Keching bu Harom ishdan!Nafsni quli bo’lmang!

©manfaatlii

Erkak kishi nazar solishi joiz bo’lgan ayollar👇 :

1.Ona va onaning onasi,qancha yuqorilasa ham.

2.Qiz,qizning qizi, qancha pastlasa

ham.

3.Opa-singillar, ota bir bo’ladimi,ona bir bo’ladimi, farqi yo’q.

4.Amma va xolalar.

5.Aka-ukalar va opa-singillarning qizlari.

6.Xotinining onasi,ya’ni qaynona.

7.Xotinining boshqadan bo’lgan qizi,ya’ni o’gay qiz.

8.O’glining xotini,ya’ni kelin.

9.Otasining xotini,ya’ni o’gay ona.

10. Yuqoridagi 9 bandda ko’rsatilganlarning hammasi emishlik orqali bo’lganda ham.

11.Voyaga yetmagan qizchalar.

12.Qarib qolgan kampirlar.

Erkak kishiga ushbu ko’rsatib o’tilgan ayollardan boshqa birortasining avratiga jiddiy zaruriyatsiz qarash joiz emas.

Erkakning avrati:kindigidan tizzasigacha,jumladan tizzasi ham.

-Nomahramning avrat bo’lmagan

joyiga(ayolning yuzi va ikki kaftiga) shahvat(“sevib”)ila, lazzatlanish uchun qarash joiz emas.

-O’ziga mahram bo’lganlarga,masalan,opa-singillarga,o’z keliniga shahvat(“sevib”)nazari ila qarash Harom.

-O’ziga mahram bo’lganlarning uyatli joylariga nazar solish joiz emas(er-xotin mustasno).

-Balog’atga yetishiga oz qolganlarga ham ehtiyotan balog’atga yetganlardek hukmlar joriy bo’ladi.

-Biror erkak boshqa ayolga tana tuzilishlari va jinsiy a’zolarini vasflab berish joiz emas.

-Erkak erkakka shahvat nazari ila qarashi Harom.

📚“Zinoga yaqinlashmang”

Nomahramlardan ko’zni tiymaslik balosi

Zinoga olib boruvchi yo’llarning eng keng tarqalgani,jamiyat hayotida chuqur ildiz otgani bu- nomahramlardan ko’zini tiymaslikdir. Bu narsa Haromdir.

Nomahram deganda,erkak bo’lsin

yoki ayol bo’lsin,mahramlik aloqasi bo’lmaganlarning barchasi kiradi.Erkak o’ziga nomahram bo’lgan ayollarga va ayol o’ziga nomahram bo’lgan erkaklarga shar’iy uzrsiz qarashi Haromdir.

Alloh taolo bu xususida bunday marhamat qilgan: “Sen mo’minalarga ayt, ko’zlarini tiysinlar,farjlarini saqlasinlar.Ana shu ular uchun pokdir.Albatta, Alloh nima hunar qilayotganlaridan xabardordir.
Sen mo’minalarga ayt:ko’zlarini tiysinlar,farjlarini saqlasinlar, ziynatlarini ko’rsatmasinlar,magar zohir bo’lgan ziynatlar

bo’lsa(mayli).Ro’mollarini ko’ksilariga to’sib yursinlar. Ziynatlarini ko’rsatmasinlar,magar erlariga yo otalariga yo erlarning otalariga yo o’g’illariga yo erlarining o’g’illariga yo aka-ukalariga yo aka-ukalarining o’g’illariga yo opa-singillarining o’g’illariga yo ayollariga yo qo’llarida mulk bo’lganlarga yo(ayollarga) behojat erkak xizmatchilarga yo ayollar avratining farqiga bormagan yosh bolalarga(bo’lsa mayli). Maxfiy ziynatlarini bildirish uchun oyoqlarini(yerga) urmasinlar. Allohga barchangiz tavba qiling, ey mo’minlar. Shoyadki. najot topsangizlar”.(Nur,30-31)

Ushbu oyatlarda Alloh taolo Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga xitob qilib, mo’minlar nomahram ayollardan ko’zlarini tiyishlarini,zino va uning ko’rinishlaridan uzoqda bo’lishni buyurmoqda. Albatta, har qanday faxsh nomahramga nazar tashlashdan boshlanadi. Bu harom ishni, ya’ni nomahramlarga nazar tashlashni qilgan odam darajama-daraja boshqa ishlarga qo’l urishi mumkin bo’ladi. Banda doimo “Meni Alloh ko’rib turibdi” degan fikr bilan yursa, bunday ishlarga qo’l urmaydi. Ushbu oyatdan muslima ayollarning o’zlari ham nomahramlarga shahvat

nazari bilan qaramasliklari tushuniladi.

Alloh taolo shunday marhamat qilgan:
“U Zot ko’zlarining xiyonatini ham,dillar maxfiy tutgan narsalarini ham bilur”. (G’ofir 19)

Ya’ni, birovga sezdirmasdan,o’g’rincha ko’z qiri tashlaganini ham biladi, hisobga olib qo’yadi. Hech kimga sezdirmasdan,dilda tugib qo’yilgan narsalarni ham juda yaxshi biladi. Shunday ekan, boshqa narsalarni bilishida hech shak-shubha yo’qdir.

“Chunki quloq,ko’z,dilning har biri to’g’risida (har bir inson) ma’sul bo’lur (javob berur)” (Isro 36)

Ushbu oyatdan inson har bir amaliga, shu jumladan,ko’zi ila solgan har bir nazariga ma’sul ekanligi aytilmoqda.

Nabiy Sollallohu alayhi vasallam: “ Yo’llarda o’tirishdan chetlaninglar”, deganlarida, sahobalar: “Bunga bizning xojatimjz bor. Biz ko’chada bir birimiz bilan suhbatlashamiz”,dedilar. Shunda Rosululloh sollallohu alayhi vasallam unday bo’lsa, ko’chada turganingizda yo’lning haqqini ado

etinglar”, dedilar. Sahobalar: Yo’lning haqqi nima, Yo Rosululloh?” deb so’raganlarida Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Ko’zni nomahramlardan tiyish, ozor berishdan tiyilish, salomga alik olish, yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish”,dedilar.

(Buxoriy,Muslim rivoyati)

Imom Muslim Jarir ibn Abdulloh roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisida bunday deyiladi: “ Rosululloh sollallohu alayhi vasallamdan nomahramga ko’z tushib qolishi haqida so’raganimda, u kishi ko’zimni olib qochishga

buyurdilar”.

Imom Hokim va Tabaroniy rivoyat qilgan hadislarda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Nomahramlarga nazar solish shaytonning zaharlangan o’qlaridan bir o’qdir. Kim Allohdan qo’rqib bu narsani tark qilsa, Alloh unga qalbida topadigan halovat qilib qo’yadi”.

Ey muslim va muslima! O’zing hal qil, nimani tanlaysan: shaytonning zaharlangan o’qinimi yoki Allohga yo’liqadigan kungacha qalbingda bo’ladigan iymon halovatinimi?

Ba’zilar nomahramlarga qarashga

odatlanib qolgan bo’ladilar. Ular buning harom ekanligini bilganlarida ham o’sha odatlarini tark qilib bundan tiyilishlari qiyin bo’ladi. Ammo nomahramlarga nazar solishga odatlangan ko’z ulardan ko’zini burishga ham odatlana oladi. Faqat bu yo’lda Allohdan madad so’rash va tirishqoqlik qilish kerak. Ulug’ ishlar jiddiy tirishqoqlikni talab qiladi.

“Zinoga yaqinlashmang”
@manfaatlii